

Yagona aksiyadorning 2021-yil  
“30” sentabrdagi 8-son qaroriga  
ILOVA

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”  
aksiyadorlik jamiyatining  
yagona aksiyadorining  
2021-yil “30” sentabrdagi  
8-son qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI”  
AKSIYADORLIK JAMIYATINING

“BOSHQARUV TO‘G‘RISIDA” GI

NIZOMI

(yangi tahrirda)

## MUNDARIJA

1.	Umumiy qoidalar .....	3
2.	Boshqaruv vakolatlari.....	3
3.	Boshqaruv a'zolarini saylash, tayinlash va vakolatini muddatidan oldin tugatish .....	3
4.	Boshqaruv raisi - Bosh direktor va Boshqaruv kotibi.....	4
5.	Boshqaruv majlislari .....	5
6.	Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatlari .....	9
7.	Boshqaruv qo'mitalari.....	9
8.	Boshqaruv a'zolari javobgarligi .....	10
9.	Yakuniy qoidalar .....	10

## **1. Umumiy qoidalar**

- 1.1 “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“**Jamiyat**”) ning Boshqaruv to‘g‘risidagi mazkur nizomi (“**Nizom**”) ijroiya organining maqomini va faoliyatini, uning a‘zolarini saylashni, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.
- 1.2 Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi – Jamiyat Boshqaruvi (“**Boshqaruv**”) tomonidan amalga oshiriladi, uning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi (“**Ustav**”) va ushbu Nizom bilan belgilanadi.
- 1.3 Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni va Jamiyat Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.4 Ushbu Nizom aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

## **2. Boshqaruv vakolatlari**

- 2.1 Boshqaruv vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan masalalar kiradi.
- 2.2 Boshqaruvning har bir a‘zosi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, ushbu Nizom, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilangan vakolat doirasida harakat qiladi.
- 2.3 Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi, Ustav va Jamiyatning rivojlanish rejalari bilan belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan Boshqaruv o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo‘yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

## **3. Boshqaruv a‘zolarini saylash, tayinlash va vakolatini muddatidan oldin tugatish**

- 3.1 Boshqaruv a‘zolari Jamiyat aksiyadorlarining vakillari va Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga binoan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Jamiyat aksiyadorlari vakili bo‘lmagan Jamiyat xodimlari bo‘lishi mumkin, Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi qarori bilan tayinlanadigan Boshqaruv raisi - Jamiyat Bosh direktori bundan mustasno.
- 3.2 Boshqaruv a‘zosi tegishli ish tajribasi, bilim, malaka va ishbilarmonlik obro‘sigacha ega bo‘lishi lozim.
- 3.3 Boshqaruv 5 (besh) nafar a‘zodan tashkil topadi.
- 3.4 Boshqaruv raisi va a‘zolari 1 (bir) yil muddatga cheklanmagan miqdorda yangi muddatga qayta saylanish imkoniyati bilan tayinlanadi. Boshqaruv raisi - Bosh direktor va Boshqaruv a‘zolarining vakolat muddati Boshqaruvning umumiy vakolat muddati bilan bir xil bo‘ladi.
- 3.5 Kuzatuv kengashi raisi Boshqaruv a‘zolari lavozimiga ma‘lum nomzodni taqdim qilganda, shartnoma tuzish shartlari, maosh miqdori, boshqaruv faoliyati uchun ish haqi, haq to‘lash va kompensatsiya miqdori hamda nomzodning shaxsiy arizasi bilan tasdiqlangan shartnoma tuzishga roziligi to‘g‘risida axborot beradi.
- 3.6 Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining Boshqaruv Raisi - Bosh direktorni saylash (tayinlash) to‘g‘risidagi qarori yig‘ilishda ishtirok etayotgan Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalarining ko‘pchilik ovozi (oddiy ko‘pchilik) bilan qabul qilinadi.

- 3.7 Boshqaruv a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.
- 3.8 Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi - Bosh direktor lavozimiga nomzodlar o'z nomzodlarini ko'rib chiqishda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida va Kuzatuv kengashida ishtirok etishlari mumkin.
- 3.9 Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi - Bosh direktor lavozimiga nomzod saylangandan (tayinlangandan) so'ng, Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi - Bosh direktorning vazifalarini bajarish uchun Jamiyat ularning har biri bilan 1 (bir) yil muddatga uni uzaytirish yoki tugatish imkoniyati bilan shartnoma tuzadi.
- 3.10 Jamiyat nomidan mehnat shartnomasi Kuzatuv kengashi raisi yoki Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi.
- 3.11 Boshqaruv a'zolari va (yoki) Boshqaruv raisi - Bosh direktorning ish haqi va ularga haq to'lash miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi va mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Boshqaruv Raisi - Bosh direktorning ish haqi va unga haq to'lash miqdori aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bilan, Boshqaruv a'zolarining ish haqi va ularga haq to'lash miqdori esa mos ravishda Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi.

#### **4. Boshqaruv raisi - Bosh direktor va Boshqaruv kotibi**

##### **4.1 Boshqaruv raisi - Bosh direktor**

- 4.1.1 Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan masalalar kiradi.
- 4.1.2 Boshqaruv raisi – Bosh direktor o'z vakolatlari doirasida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:
- a) Boshqaruv ishini tashkil etadi, uning majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;
  - b) Boshqaruv majlislarining kun tartibini shakllantiradi;
  - b) Boshqaruv majlislari bayonnomalari, shuningdek, Boshqaruv nomidan boshqa hujjatlarni imzolaydi;
  - г) Boshqaruv majlislari kun tartibining alohida masalalari muhokamasi bo'yicha taklif etilganlar shaxslarning ro'yxatini belgilaydi;
  - д) Jamiyat nomidan ishonchnomada ko'rsatib o'tilgan harakatlarni amalga oshirish huquqini beruvchi yakka tartibda ishonchnomalar taqdim etadi;
  - e) Jamiyat Boshqaruv a'zolari, muhim rahbarlari va tuzilmalarning rahbarlariga ish beruvchi huquqini taqsimlash to'g'risida buyruqlar qabul qiladi;
  - ж) Kuzatuv kengashiga Boshqaruv faoliyati yuzasidan hisobotlarni taqdim etadi;
  - з) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Ustavi va ushbu Nizomda qayd etilgan boshqa funksiyalar.

##### **4.2 Boshqaruv kotibi**

- 4.2.1 Boshqaruv kotibi vazifasini Jamiyatning korporativ munosabatlar bo'limi boshlig'i bajaradi.
- 4.2.2 Boshqaruv kotibi Boshqaruv va uning a'zolari ishini tashkiliy jihatdan va axborot bilan ta'minlash funksiyalarini bajaradi, shuningdek:
- a) Boshqaruv a'zolarini ushbu Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari bilan belgilangan muddatda Boshqaruv majlislari o'tkazish haqida xabardor qiladi;
  - б) Boshqaruv a'zolariga Boshqaruv majlisi uchun zarur bo'lgan ma'lumot va materiallarni yuboradi;
  - в) Boshqaruv a'zolariga Boshqaruv majlislarining kun tartibi masalalarini tayyorlashda texnik va tashkiliy yordam ko'rsatadi;
  - г) Boshqaruv qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinganda Boshqaruv a'zolariga ovoz berish byulletenlarini yuboradi;
  - д) sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadigan qarorlar bo'yicha natijalarni hisoblaydi;
  - е) Boshqaruv majlislari bayonnomalarini yuritadi, tuzadi va imzolaydi;
  - ж) Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar tuzadi va ularni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi;
  - з) Boshqaruv majlislari bayonnomalari va sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadigan qarorlar bo'yicha Boshqaruv a'zolariga yuborilgan byulletenlarning saqlanishini ta'minlaydi;
  - и) Boshqaruvning kirish hujjatlari va chiqish hujjatlarining nusxalari hisobini yuritadi va ularni saqlaydi, shuningdek
  - к) ushbu Nizom, Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari va Boshqaruv raisi topshiriqlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.
- 4.2.3 Boshqaruv kotibi – Jamiyatning korporativ munosabatlar bo'limi boshlig'i yo'qligida uning vazifalarini Boshqaruv qaroriga asosan Jamiyatning korporativ munosabatlar bo'limi xodimi bajaradi.

## **5. Boshqaruv majlislari**

### **5.1 Boshqaruv majlislarini o'tkazish**

- 5.2 Boshqaruvning majlislari zaruratga ko'ra, lekin oyida kamida 1 (bir) marta Boshqaruv tomonidan tasdiqlangan Boshqaruv majlislarining choraklik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Boshqaruv tomonidan Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga qaror qabul qilish uchun chiqarilgan masalalar oldin majburiy tartibda Boshqaruv majlisida muhokama qilinadi. Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida Boshqaruvning fikri yuzasidan Boshqaruv Raisi - Bosh direktor yoki u vakolat bergan Boshqaruv a'zosi hisobot beradi va uni himoya qiladi.

- 5.3 Boshqaruv Raisi - Bosh direktor xohishiga ko'ra Boshqaruv majlisi a'zolarining bevosita ishtiroki orqali (bevosita ishtirok) yoki sirtidan (byulletenlar orqali ovoz berish) o'tkazilishi mumkin.
- 5.4 Boshqaruv Raisi - Bosh direktorning qaroriga binoan Boshqaruv majlisi videokonferensiya va (yoki) telefon aloqasidan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin, bu haqda Boshqaruv majlisining bayonnomasida tegishli yozuv kiritiladi. Bunday holda, majlis o'tkaziladigan joy Jamiyat joylashgan joy deb hisoblanadi.
- 5.5 Boshqaruv majlislarini Boshqaruv Raisi - Bosh direktor yoki ko'rib chiqilayotgan masalalarning taalluqliligi bo'yicha Boshqaruv a'zolaridan biri boshqaradi.
- 5.6 Boshqaruv kotibi Boshqaruv majlisleri bayonnomasini yuritilishini tashkil etadi.
- 5.7 **Boshqaruv majlislarini chaqirish**
- 5.7.1 Boshqaruv majlisleri Boshqaruv tomonidan yilning har chorakdagi birinchi majlisidan kechiktirmay Boshqaruv tomonidan tasdiqlanadigan majlislerning choraklik rejasiga muvofiq chaqiriladi. Zaruratga ko'ra, Boshqaruv Raisi - Bosh direktor o'z tashabbusi bilan yoki quyidagilarning talablariga binoan rejadani tashqari majlisleri chaqiradi:
- a) Boshqaruv a'zosi;
  - б) Kuzatuv kengashi a'zosi;
  - в) Taftish komissiyasi;
  - г) Ichki audit xizmati; yoki
  - д) Korporativ maslahatchi.
- 5.7.2 Boshqaruv majlisini chaqirish to'g'risidagi talab Boshqaruv majlisining tashabbuskori tomonidan Boshqaruv raisi - Bosh direktorga yoki uning vazifalarini bajaradigan shaxsga yuboriladi va majlis kun tarkibidagi masalalarning mazmuni aks ettirilishi mumkin.
- 5.7.3 Boshqaruv raisi - Bosh direktor Boshqaruv majlisini o'tkazish to'g'risida talabni olgandan so'ng, talab olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Boshqaruv majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday majlis uni o'tkazish to'g'risida talab kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kundan kechiktirmasdan o'tkazilishi yoki Boshqaruv majlisini o'tkazish to'g'risida talabda keltirilgan masalalar Boshqaruvning eng yaqin majlisi kun tartibiga kiritilishi lozim.
- 5.7.4 Boshqaruv majlisini chaqirganda, Boshqaruv raisi - Bosh direktor quyidagilarni belgilaydi:
- a) majlis o'tkazish joyi va vaqti;
  - б) majlis o'tkazish shakli (bevosita ishtirok, sirtidan);
  - в) kun tartibi; shuningdek
  - г) majlis uchun Boshqaruv a'zolariga taqdim etiladigan ma'lumotlar va materiallar ro'yxati.
- 5.7.5 Boshqaruv majlislerida kun tartibiga kiritilgan masalalar ko'rib chiqiladi, shuningdek, majlisda ishtirok etayotgan Boshqaruv a'zolari ko'pchiligining roziligi bilan kun tartibiga kiritilmagan masalalar ko'rib chiqilishi mumkin.

5.7.6 Boshqaruv muhokamasiga masalalarni kiritish huquqiga Boshqaruv Raisi - Bosh direktor, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari, Taftish komissiyasi, Ichki audit xizmati va Korporativ maslahatchi ega.

5.7.7 Boshqaruv a'zolari bo'lmagan shaxslar Boshqaruv majlislariga taklif qilinishi mumkin. Bunday shaxslar kun tartibidagi muhokamalarda qatnashish, muhokama qilingan masalalar bo'yicha o'z sharhlarini, ma'lumotlarini va (yoki) materiallarini taqdim etish huquqiga ega, shu bilan birga ular kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emaslar.

## 5.8 **Boshqaruv a'zolarini Boshqaruv majlisi chaqirish va o'tkazish haqida ogohlantirish**

5.8.1 Boshqaruv kotibi Boshqaruv a'zolarini Boshqaruv majlisidan kamida 5 (besh) ish kun oldin elektron pochta orqali yoki Boshqaruvning har bir a'zosi tomonidan xabarnoma olishni kafolatlovchi ular uchun boshqa qulay usulda yozma ravishda majlis o'tkazish to'g'risida xabardor qiladi (shu jumladan, pochta, telegraf, faksimiliya yoki boshqa aloqa vositasi orqali).

5.8.2 Boshqaruv majlisini o'tkazish haqidagi xabarnomada quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- a) majlis o'tkazish tashabbuskori haqida;
- b) kun tartibi haqida;
- v) majlis o'tkazish joyi va vaqti haqida; va
- r) majlis o'tkazish shakli (bevosita ishtirok, sirtidan).

Boshqaruv majlisi o'tkazish haqida xabarnoma bilan bir vaqtda Boshqaruv a'zolariga barcha zarur materiallar va ma'lumotlar yuboriladi.

5.8.3 Boshqaruv a'zosi Boshqaruv majlisida ishtirok eta olmasligi haqida Boshqaruv raisi - Bosh direktorni oldindan xabardor qilishi lozim.

## 5.9 **Kvorum va qaror qabul qilish**

5.9.1 Boshqaruv uning majlisida Boshqaruv a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan hollarda qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lib, Boshqaruvning barcha a'zolari ishtiroki talab qilinadigan ushbu Nizomning 5.9.4-bandida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilish bundan mustasno.

5.9.2 Boshqaruv qarori Boshqaruv majlisida yoki sirtidan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

5.9.3 Boshqaruvning qarorlari Boshqaruv a'zolari sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Nizomning 5.9.4-bandida nazarda tutilgan masalalar bundan mustasno. Ovozlar teng bo'lsa Boshqaruv Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

5.9.4 Jamiyat ustavining 15.8-bandi (v), (g), (d), (ye), (k), (l), (m), (n), (p), (r) kichik bandlarida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha qarorlar barcha Boshqaruv a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

5.9.5 Agar ushbu Nizomning 5.9.4-bandida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha Boshqaruv tomonidan bir ovozdan qaror qabul qilinmasa, bunday masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish masalasi Kuzatuv kengashiga kiritiladi.

- 5.9.6 Boshqaruv majlisida masalalarni hal etishda Boshqaruvning har bir a'zosi 1 (bir) dona ovozga ega. Boshqaruv a'zosi tomonidan ovoz berish huquqini boshqa shaxsga, shu jumladan, Boshqaruvning boshqa a'zosiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 5.9.7 Boshqaruv majlisida qabul qilingan Boshqaruv qarori ushbu masala bo'yicha ovoz berish natijalari e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.
- 5.9.8 Boshqaruvning sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan qarori Boshqaruv majlisining bayonnomasi tuzilgan kundan boshlab, lekin ovoz berish byulletenlarini qabul qilish muddati tugaganidan keyin uchinchi kundan kechiktirmay kuchga kiradi.
- 5.10 Boshqaruv majlisi bayonnomasi**
- 5.10.1 Boshqaruv qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, u Boshqaruv Raisi - Bosh direktor va Boshqaruv kotibi tomonidan imzolanishi va ovoz berishga qo'yilgan masalalarni, har bir masala bo'yicha Boshqaruvning har bir a'zosi tomonidan ovoz berish natijalarini aks ettiruvchi ovoz berish natijalarini o'z ichiga olishi lozim.
- 5.10.2 Boshqaruv majlisining bayonnomasi Boshqaruv kotibi tomonidan, u yo'qligida esa uning vazifalarini bajaruvchi Jamiyat xodimi tomonidan yuritiladi.
- 5.10.3 Boshqaruv majlisi bayonnomasi u o'tkazilgandan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechikmasdan tuzilishi lozim. Boshqaruv majlisi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:
- a) Jamiyatning to'liq nomi va joylashgan joyi;
  - б) majlis o'tkazish sanasi, vaqti va joyi;
  - в) majlis o'tkazish shakli;
  - г) majlisda ishtirok etayotgan shaxslar haqida ma'lumotlar;
  - д) kun tartibidagi barcha masalalar yoki har bir masala bo'yicha kvorum;
  - e) majlisning kun tartibi;
  - ж) ovozga qo'yilgan masalalar, va har bir masala bo'yicha qarorlarning tahriri, va Boshqaruv majlisining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha Boshqaruvning har bir a'zosi tomonidan ovoz berish natijalari aks ettirilgan ovoz berish natijalari;
  - з) qabul qilingan qarorlar; shuningdek
  - и) bayonnomaning imzolagan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (Boshqaruv Raisi va Boshqaruv kotibining yoki majlisda Boshqaruv kotibi vazifasini bajaruvchi shaxsning FISh).
- 5.10.4 Boshqaruv kotibi Boshqaruv a'zosining iltimosiga binoan unga tanishish uchun Boshqaruv majlisining kotibi imzosi va Boshqaruv muhri izi bilan tasdiqlangan Boshqaruv majlisi bayonnomasini taqdim etadi.
- 5.10.5 Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar quyidagi shaxslarga taqdim etiladi:
- a) Kuzatuv kengashi raisi va Taftish komissiyasi raisiga majburiy tartibda;
  - б) boshqa mansabdor shaxslar va auditorning so'roviga ko'ra; shuningdek
  - в) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlarga (shu jumladan, davlat organlari).



## **6. Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatlari**

- 6.1 Boshqaruv a'zosi boshqa tashkilotlarda faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan ishlashga haqlidir. Boshqaruv a'zosi Jamiyat bilan raqobatlashadigan tashkilotlarda ishlashga haqli emas, aksiyalari (ishtirok ulushlari) to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita Jamiyatga tegishli bo'lgan tashkilotlar bundan mustasno.
- 6.2 Boshqaruv a'zolari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Ustav, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlariga zid ravishda Jamiyat mulkidan foydalanmasligi yoki foydalanishga yo'l qo'ymasligi shart, shuningdek, shaxsiy manfaatlari uchun foydalanish va affillangan shaxslar bilan shartnomalar tuzishda suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymasligi lozim.
- 6.3 Boshqaruv a'zolari Jamiyatga zarar yetkazilishini oldini olish, Jamiyat faoliyatini optimallashtirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish, Jamiyat Boshqaruv majlisini chaqirishga tashabbus ko'rsatish, Boshqaruv Raisi - Bosh direktorini xabardor qilish yoki boshqa har qanday mavjud usulda usulda Jamiyat faoliyatini optimallashtirishga majbur.
- 6.4 Boshqaruv a'zosining boshqa funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Ustav, shuningdek ushbu shaxs bilan Jamiyat o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.
- 6.5 Boshqaruv majburiyatlariga quyidagilar kiradi:
- a) Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari ijrosini tashkil etish;
  - b) Jamiyatning ishlab chiqarish birliklari, sexlari va Jamiyatning boshqa tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash;
  - b) ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi daromad olinishini ta'minlash;
  - r) Jamiyatni rivojlantirish biznes-rejalari va dasturlarini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, ularning ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;
  - д) xizmat yoki tijorat sirini, shuningdek insayderlik axborotlarni tashkil etadigan ma'lumotlarni saqlanishini ta'minlash;
  - e) Boshqaruv a'zolarini jamoaviy muzokaralarda ishtirok etishini ta'minlash;
  - ж) o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan ishlarning holati to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga taqdim etish; va
  - 3) ichki hujjatlar, amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlariga rioya qilish.
- 6.7 Boshqaruv a'zolarining aniq huquq va majburiyatlari Boshqaruv a'zolarining har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan.

## **7. Boshqaruv qo'mitalari**

- 7.1. Boshqaruv qarorlarini dastlabki o'rganib chiqish o'z vakolatlari doirasida Boshqaruv qo'mitalari tomonidan amalga oshiriladi.
- 7.2. Jamiyatda Boshqaruvning quyidagi qo'mitalari tuziladi:

- a) Xaridlar qo‘mitasi;
  - б) Budget qo‘mitasi;
  - в) Etika qo‘mitasi;
  - г) Investitsiya qo‘mitasi.
- 7.3. Qo‘mitalar ularning rahbarlari va ma‘lum qo‘mitada ishlash uchun zarur kasbiy bilimlarga ega Jamiyat tarkibiy bo‘linmalarining mutaxassislaridan tashkil topadi.
- 7.4. Boshqaruv qo‘mitalarini shakllantirish tartibi, faoliyati va tarkibi shuningdek, ularning Boshqaruv va Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqalari tartibi Boshqaruv tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar bilan belgilanadi.

## **8. Boshqaruv a‘zolari javobgarligi**

- 8.1 Boshqaruvning har bir a‘zosi o‘z huquqlarini amalga oshirganda va majburiyatlarini bajarganda Jamiyat manfaatlariga muvofiq ish tutishi lozim va belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.
- 8.2 Boshqaruvning har bir a‘zosi ushbu lavozimda ishlagan davrida faoliyati bilan raqobatlashadigan yoki mahsulot sotish yoki xizmatlar ko‘rsatishda qiyinchiliklar tug‘diradigan yuridik shaxslar va korxonalarini tashkil etish yoki tashkil etishda qatnashish huquqiga ega emas. shirkat. Boshqaruvning har bir a‘zosi Jamiyatdagi lavozimga tayinlangandan so‘ng, ushbu yuridik shaxslarda o‘z ishtirokini to‘xtatib turishi va bu haqda Jamiyat Kuzatuv kengashiga xabar berishi shart.
- 8.3 Boshqaruv O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyat ustaviga muvofiq Jamiyat oldida o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.
- 8.4 Boshqaruv quyidagilar uchun javobgardir:
- a) Jamiyatda ichki nazorat va xatarlarni boshqarish tartib-qoidalarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun;
  - б) aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi va Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun moliyaviy va inson resurslarini ajratish uchun;
  - в) Jamiyatning Kuzatuv kengashini Jamiyatning rivojlanish rejasi doirasida o‘z funksiyalarini to‘liq bajarishi uchun zarur resurslar bilan ta‘minlash uchun; hamda
  - г) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Ustavda va Jamiyatning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

## **9. Yakuniy qoidalar**

- 9.1 Ushbu Nizomga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari va (yoki) Boshqaruv a‘zolari taklifiga binoan kiritiladi.
- 9.2 Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.
- 9.3 Jamiyat yoki jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining kamida 1 foiziga (bir foiziga) egalik qiladigan aksiyador (aksiyadorlar) Boshqaruv a‘zolariga nisbatan ular tomonidan

Jamiyatga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

- 9.4 Agar ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va (yoki) Jamiyat ustaviga zid bo'lsa, bunday moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlar bilan tartibga solinadigan masalalar ushbu Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilmaguncha, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va (yoki) Jamiyat Ustavining qoidalari bilan tartibga solinadi.